


Gipospadiya va og'riqli ereksiya



Gipospadiya va og'riqli ereksiya nima?

Gipospadiya bu jinsiy olatning umumiy tuzilishidagi farq bo'lib, unda uretra (siydikni siydik pufagidan tananing tashqarisiga olib chiqadigan kanal) jinsiy olatning uchida emas, balki ost qismida joylashgan bo'ladi. Siydik chiqarish teshigi jinsiy olatning boshidan tortib moyakdon va anal teshik orasidagi terigacha bo'lgan yerda joylashishi mumkin.

Jinsiy olatning tug'ma egriligi deb nomlangan holat ko'pincha gipospadiya bilan birga yuz beradi. Jinsiy olatning tug'ma egriligi holati bu jinsiy olatning pastga tomon qiyshayishidir. Bu gipospadiya bilan yoki usiz yuz berishi mumkin.

Gipospadiya quyidagi turlarga bo'linadi:

- **Distal yoki jinsiy olat boshi:** Eng keng tarqalgan shakli bu siydik chiqarish teshik jinsiy olat boshiga yaqin joydan o'rin olishidir.
- **Sop o'rtasi:** Siydik chiqarish teshigi jinsiy olat sopining o'rtasida yoki pastki qismida joylashgandagi shaklidir.
- **Moyakdon-sop:** Bu holat siydik chiqarish teshigining jinsiy olat va moyakdon birlashadigan qismida joylashganidir.
- **Chot:** Siydik chiqarish teshigining moyakdon ortida joylashishidir. Bular gipospadiyaning eng jiddiy va kamroq uchraydigan shakllaridir.

Bu kasallik qanchalik keng tarqalgan?

Gipospadiya har 150-300 ta o'g'il bolaning bittasida yuz beradi. Agar o'g'il bolada gipospadiya bo'lsa, uning aka-ukasida ham bunday holat bo'lishining ehtimoli 15% ni tashkil etadi. Farzandida gipospadiya bo'lgan otalarning 8% qismida ham ayni kasallik mavjud bo'ladi.

Bunday kasallikni nima keltirib chiqaradi?

Gipospadiyaning aniq sababi noma'lum. Uning rivojlanishiga aloqador bir necha omil bor deb taxmin qilinadi. Genetika, atrof-muhit va gormonlar gipospadiyaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar bo'lishi mumkin.

Gipospadiya tashxisi qanday qo'yiladi?

Odatda gipospadiya inson tug'ilganida ko'rinadi. Noto'g'ri joylashgan siydik chiqarish teshigi bilan birga ko'pincha sunnat terisi to'liq shakllanmagan bo'ladi va qalpoq shaklida bo'ladi. Bunga qalinlashgan pay deyiladi.

Gipospadiya qanday belgi va alomatlarga ega?

Gipospadiyaning yengil shakllariga ega ayrim bolalarda gipospadiyaga oid hech qanday alomatlar bo'lmashi mumkin.

Agar gipospadiya va/yoki jinsiy olatning tug'ma egriligi jiddiyroq bo'lsa va tuzatilmasa, bolalarda ulg'ayganda quyidagi muammolar kuzatilishi mumkin:

- Siydik oqimini yo'naltirish va nazorat qilish qiyin kechishi mumkin
- Jinsiy olat o'sgani sari qiyshayishi va keyinchalik jinsiy disfunksiyaga olib kelishi mumkin
- Agar uretra teshigi moyakdonga yaqin yoki uning orqasida bo'lsa, unda keyinchalik bepustlikka oid muammolar yuz berishi mumkin

Gipospadiya qanday davolanadi?

Gipospadiyasi bo'lgan ayrim bemorlar ularda kasallik alomatlari bo'lmagani bois yoki bemor/oilaning tanloviga ko'ra tibbiy kuzatishdan boshqa hech qanday muolaja olmaydi. Gipospadiya va jinsiy olatning tug'ma egriligini jarrohlik yo'li bilan davolash orqali jinsiy olatning ko'rinishini o'zgartirishi mumkin va ayrim bemorlar/oilalar shifokor bilan maslahatlashgandan keyin shu yo'lni tanlaydilar.

Jinsiy olatning tug'ma egriligi yoki gipospadiyani hech qanday dori-darmon tuzatmaydi va bu holat bolalar katta yoshga yetganida o'tib ketmaydi.

Gipospadiyani ko'pincha jarrohlik amaliyoti tuzatishi mumkin. Davolovchi jamoa quyidagilarga erishish uchun operatsiyani tavsiya etishi mumkin:

- Uretra teshigini jinsiy olatning uchiga olib o'tish. Bu turgan holatda siyganda siydik oqimini nazorat qilishga yordam beradi.
- Keyinchalik jinsiy aloqa og'riqli kechishi riskini kamaytirish maqsadida jinsiy olat shaklini to'g'rilash (agar jinsiy olatning tug'ma egriligi mavjud bo'lsa).

Pediatr urolog sunnat terisidan jarrohlik yo'li bilan tuzatishda foydalanishi mumkin, shuning uchun gipospadiyasi bo'lgan bolalarni tug'ilganida xatna qilmaslik tavsiya etiladi. Jarrohlik yo'li bilan tuzatish odatda bola to'rt bilan olti oy orasida bo'lganida amalga oshiriladi, ammo uni keyinroq ham o'tkazish mumkin. Jarrohlik amaliyoti odatda ambulator shaklda, bemorni umumiy anesteziya bilan uxlatgan holda amalga oshiriladi. Gipospadiyaning jiddiyroq shakllarida jarrohlik yo'li bilan tuzatish bir necha bosqichda amalga oshirilishi mumkin.

Ehtimoliy asoratlari

Gipospadiyadagi jarrohlik amaliyoti juda muvaffaqiyatli o'tishi mumkin, ammo boshqa ehtimoliy asoratlari ham kuzatilishi mumkin. Ayrim holatlarda teshik yoki teshik yara hosil bo'lishi mumkin va u teshikdan siydik oqishi mumkin. Bu muammoni tuzatish uchun yana jarrohlik amaliyoti talab etilishi mumkin. Uretrada chandiq paydo bo'lishi mumkin va natijada uretra kanali torayishi mumkin. Bu siydik o'tishiga ta'sir etishi mumkin va buni yana jarrohlik amaliyoti orqali tuzatish talab etilishi mumkin.

Bemorlar balog'at yoshiga yetgandan keyin takroriy tekshiruvga kelishi talab etilishi mumkin.

Last Updated: 10/2025 per Jodie Johnson